


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy boshqarma  
tomonidan ro'yxatga olindi  
№ 20140-39  
2014 yil 20 iyun

Institut Kengashining  
№1 sonli qarori bilan  
TASDIQLANGAN  
2014 yil 23 avgust



**SIYOSATSHUNOSLIK.  
O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK  
JAMIYAT QURISH NAZARIYASI  
VA AMALIYOTI**

---

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Oliy ta'limning**

**Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim  
200 000 – Gumanitar soha  
Ta'lim sohasi: 110 000 – Pedagogika  
230 000 – Iqtisod  
Ta'lim yo'nalishi: Institutda o'qitilayotgan barcha ta'lim  
yo'nalishlari uchun**

Toshkent – 2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvafiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**


Qo'ng'irov I. - "Falsafa va O'DJQNA" kafedrası dotsenti, t.f.n.  
Norboyev T. - "Falsafa va O'DJQNA" kafedrası dotsenti, f.f.n.

**Taqrizchilar:**

G'oyibnazarov E. - TTYMI "Siyosatshunoslik va O'DJQNA" kafedrası dotsenti, t.f.n. (tashqi)  
Qodirova M. - "Falsafa va O'DJQNA" kafedrası dotsenti, yu.f.n. (ichki)

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedrasining 2014 – yil 30 maydagi №19 sonli majlisida muhokama etilib fakultet Kengashida kurib chiqishga tavsiy qilingan.


**Kafedra mudiri**



**I. Masharipov**

Fanning ishchi o'quv dasturi "Sug'urta" fakulteti kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (2014 – yil "14" 06 dagi 11 -sonli qarori).


**Fakultet dekani**



**D. Rustamov**

**Kelishildi:**

**O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor**



**A. Karimov**

## **KIRISH**

### **1.1. Fanning maqsadi va vazifalari:**

“Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy maqsadi – jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy jarayonlar va siyosiy hokimiyat hamda uning tarkibiy qismlari, siyosiy partiyalar, siyosiy tashkilotlar ularning o‘zaro munosabatlarini chuqur tahliliy o‘rganish. Shuningdek, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar ularning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ochib beriladi.

Ayniqsa, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda yangi tarixiy davrning boshlanishi, Prezident I.A.Karimov tomonidan demokratik fuqarolik jamiyat qurish nazariy asoslarining ishlab chiqilishi. Uning o‘rganilishini taqozo etuvchi shart-sharoitlar va omillar talabalarga chuqur o‘rgatiladi.

Har biri mavzu yakunida ta’lim texnologiyalari keltirilgan bo‘lib, ularni qo‘llash bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. Shuningdek, mazkur fandan ishlab chiqilgan modul tizimida elektron majmuada bayon etilgan.

### **1.2. Fanni o‘zlashtirgan talabani malakaviy darajasi:**

- Siyosat, siyosiy jarayonlar, siyosiy munosabatlar, siyosiy tashkilotlar ularning faoliyati haqidagi tushunchalarga ega bo‘lish.
- Talabada siyosiy ong, siyosiy madaniyat hamda siyosiy faollikning shakllanishi.
- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda faol ishtirok etish.
- Siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy munosabatlar hamda demokratik modernizatsiya jarayonlari ayniqsa Prezident I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan demokratik islohotlar bilan bog‘lik bilim va malakalarini oshirish.

### **1.3. Fanning o‘quv rejasidagi fanlar bilan bog‘liqligi:**

Mazkur fanni urganish uchun bokalavr – iqtisodchi davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan barcha ijtimoiy – gumanitar fanlar bilan bevosita aloqada bo‘ladi.

#### **1.4. Fanni o‘qitishda qo‘llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati:**

“Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining **ma’ruza mashg‘ulotlarida** kerakli ma’lumotlar ko‘rgazmali ravishda taqdim etiladi hamda boshqa yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalaniladi.

Talabalarning mustaqil o‘qishi, ma’ruza tinglashi va boshqa pedtexnologiyalardan unumli foydalanishi, ularning olgan tegishli ma’lumotlarini, bilim va malakalarini yaxlit tizimga keltiradi.

“Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o‘qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob’ektivlik tamoyillarga amal qilingan holda an’anaviy usullar:

- Davra suhbat
- Klaster
- Bahs-munozara
- Aqliy xujum
- Prezentatsiya kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining ma’ruza mashg‘ulotlarida ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

#### **1. Insert jadvali:**

- mustaqil o‘qish ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratish.

- Oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

#### **2. Klaster (klaster- tutam, bog‘lash)**

Ma’lumot xaritasini tuzish va vositasi barcha fikr konstituttsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

#### **3. Toifali jadval.**

Toifa – mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy) ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishna ta'minlaydi;

Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

#### **4. Kontseptual jadval:**

O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi, tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

“Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari.

#### **5. BBB jadvali;**

Bilaman. Bilishni xohlayman. Bildim.

- matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi:

- tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi

#### **6. T-jadval:**

Bitta kontsepsiya (ma'lumot)ning jihatini o'zaro solishtirish (xa/yo'q, xa/qarshi)

Tanqidiy mushoxada rivojlantiradi.

#### **7. BLOT-tahlil jadvali**

Siyosiy qarashlar va ta'limotlar tarixi, allomalarning qarashlari va hozirgi zamon faylsuf hamda siyosatshunoslarining mazkur sohaning asosiy muammolari to'g'risidagi qarashlari haqida zarur tushunchalarga ega bo'lish.

#### **8. Aqliy hujum.**

Bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masala butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida, mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

#### **9. Baxs:**

O'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

#### **10.Muzokaralar.**

Eshitish, aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi

#### **11.Pinbord texnikasi.**

Pinbord muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Talabalarga mazkur fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik hamda testlar majmuasi va boshqa zarur manbalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, har bir amaliy mashg'ulot jonli ko'rinishda talaba bilan ochiq muloqot tarzida tashkil etiladi.

**1.1. “Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti.(barcha ta'lim yo'nalishlari uchun)**

T/r	Fan mavzularining nomi	Jami soatlar	Shu jumladan		
			Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim
<b>Kuzgi semestr</b>					
<b>1</b>	“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanlarining predmeti,obyekti, maqsadi va vazifalari.	<b>4</b>	2	-	2
<b>2</b>	Siyosiy qarashlar va ta'limotlarning vujudga kelishi hamda rivojlanish bosqichlari.	<b>8</b>	2	2	4
<b>3</b>	Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim. Demokratiya va uning asosiy tamoyillari.	<b>8</b>	2	2	4
<b>4</b>	Siyosiy hokimiyat. Siyosiy partiyalar, ko'ppartiyaviylik va OAV.	<b>12</b>	2	4	6
<b>5</b>	Siyosiy elita va siyosiy yetakchilik. (lider)	<b>8</b>	2	2	4
<b>6</b>	Siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkura.	<b>8</b>	2	2	4
<b>7</b>	Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O'zbek modeli”. Demokratik jamiyat barpo etishda “o'tish davri”ning o'ziga xos xususiyatlari.	<b>8</b>	2	2	4
<b>8</b>	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar, umumbashariy tamoyillar. Milliy-ma'naviy negizlarga tayanish va ularning ahamiyati.	<b>8</b>	2	2	4
<b>9</b>	Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti.	<b>8</b>	2	2	4
<b>10</b>	Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish.	<b>8</b>	2	2	4
<b>11</b>	Qonun ustuvorligi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosi.	<b>8</b>	2	2	4
<b>12</b>	Demokratik jamiyat barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni.	<b>8</b>	2	2	4

13	Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari.	8	2	2	4
14	O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratiya tamoyillariga asoslanishi.	8	2	2	4
	1-oraliq nazorat				
	2-oraliq nazorat				
	Yakuniy nazorat				
<b>JAMI</b>		<b>112</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>56</b>

## **2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI**

### **2.1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI MAVZULARI**

#### **2.1.1. "Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

“Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanlarining predmeti, tadqiqot ob’ekti va sub’ekti. “Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”ning fan sifatida shakllanishi. “Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanlarining qonuniyatlari va kategoriyalari. “Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o’rganish uslublari, ilmiy-nazariy va metodologik asoslari. Mustaqillik va Respublikamizda “Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining shakllanishi va rivojlanishi. “Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o’rni va roli, ular bilan o’zaro aloqadorligi hamda uning o’ziga xosligi va asosiy vazifalari.

[A1,A2,A3,A4,A7,A8,A13, Q17,Q18,Q20,Q21,Q22,Q23,Q24]

#### **2.1.2.Siyosiy qarashlar va ta’limotlarning vujudga kelishi hamda rivojlanish bosqichlari**

Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta’limotlarning shakllanishi. Dastlabki siyosiy qarashlarning ko’rinishlari. (Diniy, yuridik, siyosiy, sotsiologik qarashlar)

Vatanimiz hududida dastlabki siyosiy hamda odil jamiyat to’g’risidagi qarashlarning paydo bo’lishi va uning “Avesto”dagi talqini.

O’rta asrlar va uyg’onish davridagi siyosiy qarashlar. Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, A.Temur, A.Navoiy va Z.M.Boburning siyosiy ta’limotlari va g’oyalari.

G’arb mutafakkirlarining siyosiy fanlar rivojiga qo’shgan hissasi. N.Makivelli, J.Boden, J.Lokk, Sh.L.Monteskvelarning siyosiy ta’limotlari.

XVII-XX asrlarda dunyodagi siyosiy jarayonlar va siyosiy qarashlar. Yurtboshimiz I.A.Karimov asarlarida siyosiy faollik va erkin fuqarolik jamiyati to’g’risidagi g’oyalari.

[A1,A7,A8,A11,A12,A13,A14,A15,A17, Q18, Q 19,Q20, Q 21,Q22,Q23, Q 24]

### **2.1.3.Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim. Demokratiya va uning asosiy tamoyillari**

“Siyosat”, “siyosiy hayot” va siyosiy jarayon tushunchalari. Siyosiy hayot sohalari. Siyosiy hayot va manfaatlar tizimi. Siyosiy barqarorlik.

Siyosiy institutlar va ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki. Siyosiy jarayonlar xususiyati va mazmuni. Barqarorlik va beqarorlik. Murosaliilik va ziddiyatlilik. Manfaatlar uyg'unligi.Siyosiy jarayonlarni baholash.O'zbekistonda siyosiy jarayonlar.

Siyosiy tizim, uning tarkibiy qism va vazifalari. Siyosiy tizim va siyosiy munosabatlar. Siyosiy tizimda davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning roli. Mustaqillik va O'zbekistonning siyosiy tizimi.

[A1,A2,A3,A4,A5,A7,A8,A16,Q17,Q18,Q19,Q20,Q21,Q22,Q23,Q24]

### **2.1.4. Siyosiy hokimiyat. Siyosiy partiyalar, ko'ppartiyaviylik va OAV**

“Hokimiyat”, “Siyosiy hokimiyat”, “Davlat hokimiyati” tushunchalari va ularning o'zaro munosabati. Siyosiy hokimiyat sub'ektlari: fuqaro, davlat, ijtimoiy-siyosiy va nodavlat notijorat tashkilotlar, institutlar. Davlat hokimiyati. Siyosiy ta'sir etish sub'ektlari.

Siyosiy hayot va ko'ppartiyaviylik. Siyosiy hayotni erkinlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rni va roli. Jahon amaliyoti. O'zbekistonda siyosiy partiyalar va harakatlar tizimi shakllanish, rivojlanish bosqichlari.

Partiyalarning siyosiy maqsadlari, partiyalararo munosabatlar va o'zaro hamkorlik. Muqobil g'oyalar va bunyodkor muxolifat. Siyosiy hayotga ta'sir etish yo'llari.

Jamiyat siyosiy hayotida axborotning o'rni. Inson huquqlari va erkinliklari, so'z va matbuot erkinligi. Axborotning siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'siri. OAV “to'rtinchi hokimiyat” sifatida. Axborot erkinligi va ma'suliyati.

Axborot xolisligi, oshkoraligi va soxtalik holatlari. Axborotlashgan jamiyat. Axborot “bo'shlig'i”ning oldini olish. OAV va jahon axborot oqimi va imkoniyatlari. Internet tarmog'i va jahon axborot makoni hamda globallashuv. Mustaqillik yillarida O'zbekiston axborot makonida OAV.

[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7, A8, A11,A13,A124,A16, Q19,Q20,Q21, Q22,Q23,Q24]

### **2.1.5. Siyosiy elita va siyosiy yetakchilik. (lider)**

Siyosiy elita va yetakchilik tushunchalari. “Elita” nazariyasi. Siyosiy elita – siyosat sub'ekti sifatida. Siyosiy yetakchi – mamlakat rahbari. Rasmiy va



norasmiy yetakchi. Siyosiy yetakchining legitimligi. Siyosiy yetakchi mas'uliyati. Islom Karimov – siyosiy yetakchi va davlat boshlig'i. mustaqillik va siyosat yetakchilik. Siyosiy yetakchining shaxsiy xususiyatlari. Amir Temur va uning davlat boshqaruvidagi siyosiy yetakchilik faoliyati.

[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7, ,A11,A13,A14,A15,A16, Q17,Q18,Q19,Q20,Q 22,Q23]

### **2.1.6. Siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkura**

Siyosiy ong tushunchasi. Siyosiy ong harakat mexanizmi. Siyosiy ong va kundalik ong. Siyosiy ong va davr. Mustaqil taraqqiyot va siyosiy ong.

Siyosiy ongning shakllanishi, uning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlari. Demokratik siyosiy ongda siyosiy manfaatlar uyg'unligi. Siyosiy ong va siyosiy murosa madaniyati. Siyosiy ongda umumdavlat manfaatlarining uyg'unlashuvi.

Siyosiy madaniyat tushunchasi. Siyosiy madaniyat tizimi va asosiy elementlari, siyosiy qadriyatlar va an'analar. Siyosiy amaliyot me'yorlari.

Milliy siyosiy madaniyat va umumbashariy demokratik jarayonlar. Millat o'zligini anglashda siyosiy ramzlarning o'rni. Siyosiy madaniyatning modellari: liberal, sharqona. Siyosiy madaniyatda uyg'unlik va o'ziga xoslik. Siyosiy madaniyatning yuksalishi va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi istiqbollari.

Siyosat va mafkura tushunchasi. Siyosatda mafkuraviy manfaatlar xilma-xilligi, raqobatlashuvi va konsensusi. Mafkura va demokratiya.

Siyosat va mafkuraning o'zaro munosabatlari. Mafkura va e'tiqod. Mafkura va ijtimoiy-siyosiy konsensus. "Mafkuraviy bo'shliq" va uning oqibatlari. Milliy g'oya va mafkura taraqqiyot tayanchi. Mafkuralar xilma-xilligi.

[A1,A2,A3,A4,A5,A10,A11,A12,A15, Q17,Q18, Q19,Q20, Q21,Q22, Q 23, Q 24]

### **2.1.7. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning "O'zbek modeli".**

#### **Demokratik jamiyat barpo etishda "o'tish davri"ning o'ziga xos xususiyatlari**

Demokratik jamiyat qurilishining turli xil milliy modellari mavjudligi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari va "O'zbek modeli". Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli"da demokratik jamiyat qurish tamoyillari: iqtisodning siyosatdan ustuvorligi. Davlat bosh islohotchi. Qonun ustuvorligi. Kuchli ijtimoiy himoya va bosqichma-bosqich rivojlanish. "O'zbek modeli"ning jamiyat ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida namoyon bo'lishi.

"Dunyoviy davlat" va "milliy davlatchilik" tushunchalari.

O'tish davri tushunchasi. Uning mustaqillikni qo'lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun zarurligi va mohiyati hamda umumiy qonuniyatlari. O'tish davrining "klassik", "inqilobiy", "evolyutsion" yo'llari. O'zbekistonda "o'tish davri"ga yondashishning o'ziga xos jihatlari. Evolyutsion, tadrijiy rivojlanish yo'lining mohiyati.

Islom Karimov tomonidan O'zbekistonning "evolyutsion tadrijiylik" asosida demokratik jamiyatga o'tishga doir nazariy, kontseptual metodologiyasining ishlab chiqilishi.

O'zbekistonda "evolyutsion-tadrijiy rivojlanish"ning real hayotga tatbiq qilinishi.

[A1,A2,A3,A4,A5, A7,A8, A13,A14,A16,Q17,Q18,Q19,Q20,Q21,Q22,Q23, Q24]

### **2.1.8. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar, umumbashariy tamoyillar. Milliy-ma'naviy negizlarga tayanish va ularning ahamiyati**

Demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar tushunchasi. Prezident Islom Karimov O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarga tayanish to'g'risida.

Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi. Demokratik jamiyat barpo etishda umumbashariy tamoyillarga bo'lgan zarurat.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarning uyg'unlashuvi. Demokratik tamoyillarga amal qilish shart-sharoitlari. O'zbekistonda adolatli, demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirilishining ahamiyati.

Milliy-ma'naviy negizlar tushunchasi va ularning mazmun-mohiyati milliy-ma'naviy negizlarga tayanish, ularning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni hamda roli. Prezident I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida milliy-ma'naviy negizlarga tayanish masalalari.

[A1,A2,A6,A7,A8,A11A13,A15,Q17,Q18,Q19,Q21, Q 23, Q 24]

### **2.1.9. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurish omili**

"Fuqaro erkinligi va faolligi" tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixidagi talqinlari. Abu Nasr Farobiyning komil inson va fozil jamiyat to'g'risidagi qarashlari. Hozirgi davr demokratiyasida inson, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlari.

Prezident I.A.Karimov demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish to'g'risida. O'zbekistonda inson faolligini oshirish demokratik jamiyat qurishning asosiy omili ekanligi. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurishning bosh maqsadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirishda fuqarolarning qonun va qarorlar qabul qilishdagi faolligi. Uning fuqaro erkinligi va faolligini oshirishdagi ahamiyati.

[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7,A8,A9,A10,A11, A13,A15,A16,Q17,Q18,Q19,Q21,Q24]

### **2.1.10. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish**

Demokratik jamiyatda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va mazmuni. Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumidan ijtimoiy yo'naltirilgan

bozor iqtisodiyotiga o'tish. Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida davlat boshqaruvi va vakolatlarini cheklash, vazifalarini o'ta markazlashtirishdan voz kechish. Ma'muriy islohotlar va iqtisodiy taraqqiyot.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Mulkchilikning xilma-xil shakllari. Iste'molchilar huquqlari va tanlash erkinligining ustunligi. Xususiy mulk va mulkdor. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi. Raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni.

O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish. Erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish.

Bozor infratuzilmasini shakllantirish. Xususiy sektor imkoniyatlarini kengaytirish. Kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish. Tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash – demokratik jamiyat rivojining zaruriy sharti.

Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” asaridagi yangicha g'oyalar va ularning ahamiyati

[A1,A2,A3A4,A7,A8,A10,A11,A12,A14,A15,A16, Q17,Q19,Q21,Q24]

### **2.1.11.Qonun ustuvorligi-demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.**

O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishida viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari. Bu munosabatlarni tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinishi.

Kodeks, qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosida adolat va inson manfaatlari ustuvorligi. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyat yuritishlari. Birorta qonun hamda normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi. Prezidentlik instituti. Vazirlar Mahkamasi. Sud mustaqilligi. Davlat organlarining vakolatlari.

Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati.

[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7,A8,A9,A10,A11,A13,A14,15, Q17,Q19,Q21,Q23,Q24]

### **2.1.12. Demokratik jamiyatni barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlarining orni.**

Nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari tushunchasi. Uning ma'no va mazmuni. Prezident Islom Karimov asarlarida O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni masalasi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlarida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari kafolatlanishi va takomillashuvi. Fuqarolik jamiyati qurish O'zbekistonning pirovard strategik maqsadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyatning shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rni. Mahalla–fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida.

Prezident I.A. Karimov O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida. Mahallaning fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'rni.

[A1,A3,A4,A6,A7,A8,A9,A10,A11,A12,A13, A16Q19,Q21,Q23,Q24]

### **2.1.13. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy ximoya va adolat tamoyillari.**

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat tamoyillari” tushunchalari. Ularning mazmuni va mohiyati. “Adolat” hamda “tenglik” tushunchalari. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va ijtimoiy haqidagi g'oyalari. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya – jamiyatda tartib, intizom, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash omili sifatida.

President I.A.Karimovning mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni barpo etish to'g'risidagi konsepsiyasi. O'zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlari. Kuchli ijtimoiy himoya siyosati: uning maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari hamda xususiyatlari.

Demokratik jamiyat turli qatlamlar, guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirishda ijtimoiy adolat mezonlari va ijtimoiy himoyaning barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi ahamiyati.

[A1,A2,A3.A4,A5,A6,A7,A8,A9,A11,A13,A15, Q17,Q19,Q21, Q23,Q24]

### **2.1.14.O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratiya tamoyillariga asoslanishi**

O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidagi demokratik tamoyillarga asoslanadi. O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy asoslari.

BMT va O'zbekiston Respublikasi. O'zbekistonning dunyo davlatlari bilan hamkorligi. MDH davlatlaridagi demokratik islohotlar va davlatlararo munosabatlar. O'zbekiston Rossiya munosabatlari. O'zbekiston Respublikasining

Shanxay hamkorlik tashkilotidagi o'zni. Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik. Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligi, unga jahon hamjamiyatining e'tibori. Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorligining istiqbollari.

[A1,A2,A3,A4,A6,A7,A8,A9,A10,A11,A13,A15, Q17,Q19,Q21,Q23,Q24]

## **2.2. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASNKIL ETISH BO'YICNA KO'RSATMALAR**

### **2.2.1. Siyosiy qarashlar va ta'limotlarning vujudga kelishi hamda rivojlanish bosqichlari. (2 soat)**

1. Antik dunyo siyosiy ta'limotlari, "Avesto"da siyosiy va odil jamiyat to'g'risidagi qarashlar va g'oyalar.
2. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo va G'arbiy Evropada siyosiy ta'limotlar. Amir Temur va temuriylar davrida siyosiy hamda odil jamiyat to'g'risidagi qarashlar.
3. Sharq va G'arbda Uyg'onish davridagi siyosiy qarashlar. XVIII-XX asrlarda siyosiy qarashlarning rivojlanishi.
4. Jadidchilarning odil jamiyat to'g'risidagi qarashlari.

[A1,A7,A8,A11,A12,A13,A14,A15,A17, Q18, Q 19,Q20, Q 21,Q22,Q23, Q 24]

### **2.2.2. Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim. Demokratiya va uning asosiy tamoyillari. (2 soat)**

1. "Siyosat", "siyosiy hayot," "siyosiy jarayon," "siyosiy barqarorlik" tushunchalari.
2. Siyosiy institutlar va ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki. Siyosiy hayot va demokratik saylov tizimi.
3. Siyosiy tizim, uning tarkibiy qism va vazifalari.
4. Demokratiya va uning asosiy tamoyillari. Fuqarolarning demokratik siyosiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etishi.

[A1,A2,A3,A4,A5,A7,A8,A16,Q17,Q18,Q19,Q20,Q21,Q22,Q23,Q24]

### **2.2.3. Siyosiy hokimiyat, Siyosiy partiyalar, ko'ppartiyaviylik va OAV (I mashg'ulot (2 soat)**

1. "Hokimiyat", "siyosiy hokimiyat" tushunchalari va ularning mohiyati.
2. Davlat hokimiyati va uni demokratiyalashuvi.
3. Siyosiy hokimiyat va uning sub'ektlari.

#### **II mashg'ulot (2 soat)**

1. Siyosiy partiyalarning asosiy maqsadlari va vazifalari. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning qaror topishi.
2. Jamiyat hayotining demokratiyalashuvi, siyosiy partiyalarning roli.
3. Axborot sohasini isloh qilish va so'z erkinligini ta'minlash.
4. OAV va globallashuv.

[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7, A8, A11,A13,A124,A16, Q19,Q20,Q21, Q22,Q23,Q24]

#### **2.2.4. Siyosiy elita va siyosiy yetakchilik. (lider) (2 soat)**

1. Siyosiy elita va yetakchilik tushunchalari. “Elita” nazariyasi.
  2. Siyosiy elita – siyoosat sub’ekti sifatida.
  3. Siyosiy yetakchi – mamlakat rahbari. Siyosiy yetakchi mas’uliyati.
  4. Amir Temur va uning davlat boshqaruvidagi siyosiy yetakchilik faoliyati.
- [A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7, ,A11,A13,A14,A15,A16, Q17,Q18,Q19,Q20,Q 22,Q23]

#### **2.2.5. Siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkuralar. (2soat)**

1. Siyosiy ong tushunchasi va uning shakllanishi.
  2. Siyosiy madaniyat tushunchasi. Siyosiy madaniyat ko’rinishi va funksiyasi
  3. Milliy siyosiy madaniyat va umumbashariy demokratik jarayonlar
1. Mafkura va uning hususiyatlari. Siyosat va mafkura, ularning o’zaro munosabatlari.
- [A1,A2,A3,A4,A5,A10,A11,A12,A15, Q17,Q18, Q19,Q20, Q21,Q22, Q 23, Q 24]

#### **2.2.6. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O’zbek modeli”. Demokratik jamiyat barpo etishda “o’tish davri”ning zaruriyati va uning o’ziga xos xususiyatlari. (2 soat)**

1. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o’ziga xos xususiyatlari va “O’zbek modeli”.
  2. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “O’zbek modeli”da demokratik jamiyat qurish tamoyillari.
  3. O’tish davri tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
  4. “O’tish davri”ning mustaqillikni qo’lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun zarurligi hamda umumiy qonuniyatlari.
- [A1,A2,A3,A4,A5, A7,A8, A13,A14,A16,Q17,Q18,Q19,Q20,Q21,Q22,Q23, Q24]

#### **2.2.7. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar, umumbashariy tamoyillar. Milliy-ma’naviy negizlarga tayanish va ularning ahamiyati (2soat)**

1. Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlari tushunchasi.
  2. Prezident Islom Karimov asarlarida O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarga tayanish to’g’risida.
  3. Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi.
  4. Milliy-ma’naviy negizlar tushunchasi, uning mazmun va mohiyati.
- [A1,A2,A6,A7,A8,A11A13,A15,Q17,Q18,Q19,Q21, Q 23, Q 24]

#### **2.2.8. Fuqarolar erkinligi va faolligini ta’minlash – demokratik jamiyat qurish omili. (2 soat)**

1. Fuqaro erkinligi va faolligi tushunchasi. Uning ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixidagi talqinlari.
2. Inson faolligining asosiy mezonlari. Inson salohiyati demokratik o’zgarishlarning eng faol va bunyodkor omili ekanligi.

3. Prezident Islom Karimov asarlarida demokratik jamiyat qurishda fuqaro erkinligi va faolligini yuksaltirish masalalari.
4. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolarning qonun va qarorlar qabul qilishdagi faol ishtiroki.  
[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7,A8,A9,A10,A11,A13,A15,A16,Q17,Q18,Q19,Q21,Q24]

### **2.2.9. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish. (2 soat)**

1. Demokratik jamiyatda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va mazmuni.
2. Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.
3. O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uning O'zbekiston sharoitida bartaraf etilishi.  
[A1,A2,A3,A4,A7,A8,A10,A11,A12,A14,A15,A16, Q17,Q19,Q21,Q24]

### **2.2.10. Qonun ustuvorligi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi. (2 soat)**

1. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi.
2. O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlashda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va senati, Prezidentlik instituti, Vazirlar Mahkamasi, Sud mustaqilligi va davlat organlarining vakolatlari.
3. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati.  
[A1,A2,A3,A4,A5,A6,A7,A8,A9,A10,A11,A13,A14,15, Q17,Q19,Q21,Q23,Q24]

### **2.2.11. Demokratik jamiyatni barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari. Fuqarolarning o'zini-o'z boshqarish organlari. (2 soat)**

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda nodavlat notijorat tashkilotlarning roli.
3. Mahalla–fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida.
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.

### **2.2.12. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy ximoya va adolat tamoyillari. (2 soat)**

1. “Kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat tamoyillari” tushunchalari hamda ularning mazmun, mohiyati.
2. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat haqidagi g’oyalari.
3. Kuchli ijtimoiy himoya – jamiyatda tartib, intizom, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlash omili sifatida.
4. O’zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlari.  
[A1,A2,A3.A4,A5,A6,A7,A8,A9,A11,A13,A15, Q17,Q19,Q21, Q23,Q24]

### **2.2.13. O’zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi (2 soat).**

1. O’zbekiston va jahon hamjamiyati. BMT va O’zbekiston Respublikasi.
2. Prezident Islom Karimov asarlarida O’zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo’shilishidagi demokratik tamoyillar haqida.
3. O’zbekistonning Evropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi.
4. MDH davlatlaridagi demokratik islohotlar va davlatlararo munosabatlar.
5. SHHT va Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik.  
[A1,A2,A3.A4,A6,A7,A8,A9,A10,A11,A13,A15, Q17,Q19,Q21,Q23,Q24]

## **3.1. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ish uchun ajratilgan soatlarni talaba o’zlashtirishi uchun ularga referat yoki mustaqil ish shaklida mavzular taqsimlab beriladi. Mustaqil ta’limning mavzulari talabalar uchun mustaqil o’rganishlari shart bo’lgan ma’ruzalar va amaliy mashg’ulotlardan tashkil topgan. U talabalarning nazariy bilimlarini mustaxkamlash va kengaytirishga, o’qitilayotgan va o’tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o’rganishga hamda dunyoqarashini yana ham kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta’limga mo’ljallangan topshiriqlar ma’ruza, amaliy, seminar mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rishga qaratilgan. Bundan tashqari talabalar, ayrim nazariy mavzularni o’quv adabiyotlari yordamida mustaqil



o'zlashtirishlari natijasida ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy – amaliy konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkun. Referat, taqdimot, ma'ruzalar kafedra tamonidan belgilab berilgan hajmda bo'lishi kerak.

**“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani bo'yicha mustaqil ta'limining mazmuni**

<b>Fanning mazmuni</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar va tavsiyalar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
“Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi, vazifalari.	“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.	Taqdimot tayyorlash	Mavzu yakunida
“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining bosqichlari.	Siyosiy qarashlar va ta'limotlarning vujudga kelishi hamda rivojlanish bosqichlari.	Slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida
Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim va ularning mohiyati.	Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim. Demokratiya va uning asosiy tamoyillari.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Oraliq baholashda
Siyosiy partiyalar, ko'ppartiyaviylik va OAV.	Siyosiy hokimiyat. Siyosiy partiyalar, ko'ppartiyaviylik va OAV.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Mavzu yakunida
Siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkura tushunchalari.	Siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkura.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida
“O'zbek modeli” va “o'tish davri”ning o'ziga xos xususiyatlari.	Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O'zbek modeli”. Demokratik jamiyat barpo etishda “o'tish davri”ning o'ziga xos xususiyatlari.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Mavzu jarayonida
O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar, umumbashariy	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar, umumbashariy	Taqdimot va slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida

tamoyillar.	tamoyillar. Milliy-ma'naviy negizlarga tayanish va ularning ahamiyati.		
Qonun ustuvorligi – demokratik huquqiy davlat va uning xususiyatlari.	Qonun ustuvorligi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.	Taqdimot tayyorlash	Oraliq baxolashda
Fuqaro erkinligi va faolligini to'shinchalari.	Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash - demokratik jamiyat qurish omili. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Mavzu yakunida
Nodavlat notijorat tashkilotlari va birlashmalari.	Demokratik jamiyat barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va birlashmalari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida
O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi.	O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratiya tamoyillariga asoslanishi.	Taqdimot tayyorlash	Mavzu yakunida

### 3.2. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o'qitishda multimedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan Power Point formatidagi jadvallardan, kompyuterdan, audio va video jihozlardan, dioproektor va kodoskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida turli xil falsafiy tushunchalar va ularning xarakteristikalarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, tahliliy jadvallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollar qo'llaniladi.

Bundan tashqari quyidagilar ham qo'llaniladi:

- didaktik materiallar tayyorlash;
- delfa metodini qo'llash orqali ko'nikmalar shakllantirish;
- verbal ifodalash;
- “BBB” metodi;
- insert metodi;
- kontseptual metod;
- “CASE STUDY (keys)” metodi va boshqalar.

“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o'rganishda talabalar dasturiy axborot tizimlari orqali falsafaning

Reyting nazorat turlari	Semestr haftaligi																	Ballar	Saratlash ballari				
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17			18 Ta'til	19 Ta'til	20	21-22 Attestatsiya
JN	3		4		4		4		4		4		4		4		2			2	x	0-35	39
ON	0-35																		x	0-35			
$\Sigma$ (JN+ON)	0-70																			0-70			
YaN																				0-30	0-30	0	
JAMI	0-70																			0-30	0-100	55	

dolzarb yangiliklaridan xabardor bo'lishlari va o'qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

#### 4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

##### 4.1 Reyting nazorati jadvali

##### 4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JN amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabani o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan.

##### 4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON bo'yicha jami 0-35 ballgacha jamlanishi mumkin. Fanning o'qitilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinova shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-35 bakk kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi

##### 4.4. $\Sigma$ (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

$\Sigma$  (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umulashtirilishi belgilangan.

$\Sigma$ (JN+ON)	Reyting ballari		Talabalarning bilim darajasi
	JN	ON	

-70	30-35	30-35	-talaba “Siyosatshunoslik.O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini mustaqil mushohada yuritsa; -fanning mohiyati va mazmunini tushunib, tarixiy voqelikka ijodiy yondoshsa; -“Siyosatshunoslik.O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani haqida aniq tasavvurga ega bo’lsa, ularning jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qo’llay olsa; -o’tilgan mavzular bo’yicha tanqidiy-konstruktiv mulohaza yuritsa; -ma’ruza, amaliy mashg’ulot va mustaqil topshiriqlarni o’z vaqtida bajarsa va to’plangan ma’ruza amaliy mashg’ulot topshiriqlarni o’z vaqtida bajarsa va to’plangan ma’lumotlarida birinchi manbalarga
50-69	25-29	25-29	-talaba “Siyosatshunoslik.O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani bo’yicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarining mohiyatini tushunsa; -fanning muhim tushunchalari haqida tasavvurga ega bo’lsa, uni bilsa va va tushuntirib bera olsa; -ma’ruza, seminar mashg’ulotlar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.
39-49	19-24	20-24	-fanning asosiy tushunchalari va tamoyillarini tushunsa va aytib bersa; - ma’ruza, seminar mashg’ulotlar va mustaqil ish larni yozgan va bajargan bo’lsa; -mashg’ulotlarda o’z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa.
-38	0-19	0-19	-fan haqida tasavvurga ega bo’lmasa, ularning mohiyatini tushunmasa; -JN va ON larni o’z vaqtida bajarmagan bo’lsa; - ma’ruza, seminar mashg’ulotlar va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo’lsa; -darslarni sababsiz qoldirgan bo’lsa; -darsda faol bo’lmasdan va intizomsizlik qilsa.

#### 4.5. YaN ni baholash mezonlari

Talabalar “Siyosatshunoslik.O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani bo’yicha yakuniy nazoratni test topshiriqlarni yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o’zlashtirish ko’rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Fan bo’yicha yakuniy nazoratning yozma ish variantlari 3 (uchta) savollardan iborat. Har bir savolga berilgan javobi 0-10 ballgacha baholanadi.

YaN	YaN ni baholash mezonlari
8,6-10	Berilgan har bir savolga to’g’ri va to’liq javob yozilsa, fanning nazariy va uslubiy asoslari to’g’ri qo’llanilsa, ilmiy tushunchalar haqida o’z mustaqil fikriga ega bo’lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa

<b>7,1-8,5</b>	Berilgan savollarga to'liq javob yozilsa, fanga oid va jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar to'liq va to'g'ri aniqlansa omillar ta'siriga ijodiy yondoshga holda xulosa va fikrlar bildirilsa
<b>5,5-7,0</b>	Berilgan har bir savolga fan haqida qisman tasavvurga ega bo'lish, fanining nazariy va uslubiy asoslari to'g'ri qo'llanilsa
<b>0-5,4</b>	Fan haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto'g'ri javob yozilsa yoki o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirib yozilsa

## **5. DASTURNING INFORMATSION – KOMMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI**

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ta'limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari, pedagogik va informatsion – kommunikatsion (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron - didaktik ) texnologiyalari majmuali tarzda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kompyuter dasturlari yordamida "ishchan o'yinlar"("Delovaya igra")lar o'tkazish asosida bevosita siyosiy jarayonlarda ishtirok etish. SHuningdek, turli prezentatsiyalar tayyorlash.

### **5.1. Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2011.- 40 b.
2. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni. // "Xalq so'zi", 2000 yil 4 aprel.
3. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni. // "Xalq so'zi", 2002 yil 27 dekabr.
4. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni. // "Xalq so'zi", 2002 yil 28 dekabr.
5. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // "Xalq so'zi", 2003 yil 28 dekabr.
6. «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // "Xalq so'zi", 2004 yil 30 aprel.
7. O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik Deklaratsiyasi (1990 yil 20 iyun). – T.: "O'zbekiston", 1990. – 12. b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - T.: "O'zbekiston", 1996.- 364 b.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. T. "O'zbekiston", 2006, -280 b.

10. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo’lida” – T.16. – T.: “O’zbekiston”, 2008. -368 b.
11. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch”. T. “Ma’naviyat”, 2008 yil. 176 b.
12. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantrish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy myzonidir” – T.19– T.: O’zbekiston, 2011.
13. Karimov I.A. “O’zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida” – T.: O’zbekiston, 2012.
14. Karimov I.A. Bizning yo’limiz– demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya taraqqiyotlarini izchil davom ettirish yo’lidir – T.20– T.: O’zbekiston, 2012.
15. Karimov I.A. mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo’lida.– T.21– T.: O’zbekiston, 2013.
16. Karimov I.A. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Senatining qo’shma majlisida O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 22 yilligiga bag’ishlangan nutqi. T.: O’zbekiston, 2013.

## **5.2. Qo’shimcha adabiyotlar:**

17. Temur tuzuklari – T.: “O’zbekiston”, 2013. 184 b.
18. Nizomulmulk. Siyosatnoma – T.: “Adolat”, 1997.-256 b.
19. Levitin L. O’zbekiston tarixiy burilish pallasida.-T.: O’zbekiston, 2001-368 b
20. Ergashev I. va b. Politologiya – T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 2002-347 b.
21. Ergashev I. va boshqalar. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: «Akademiya», 2005. (darslik)
22. Odilqoriyev X. Siyosatshunoslik – T.: “O’qituvchi”, NMIU, 2008. 344 b.
23. Qirg’izboyy M. Siyosatshunoslik – T.: “Yangi asr aviodi”, 2013. 524 b.
24. Internet saytlari:
  - [www.mgimo.ru/filesserver](http://www.mgimo.ru/filesserver)
  - [www.pacademy.edu.b](http://www.pacademy.edu.b)
  - [www.rags.ru/kaf/fi...](http://www.rags.ru/kaf/fi...)
  - [www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/...)
  - [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)
  - [www.darvoza.uz](http://www.darvoza.uz)
  - [www.fgsn.rudn.ru](http://www.fgsn.rudn.ru)
  - [www.philos.msu.ru](http://www.philos.msu.ru)
  - [www.philosophy.pu.ru](http://www.philosophy.pu.ru)
  - [www.itc.ru](http://www.itc.ru)
  - [www.mirkin.ru](http://www.mirkin.ru)
  - [www.libertarium.ru](http://www.libertarium.ru)

- [www.cepa.newschool.edu/het](http://www.cepa.newschool.edu/het)

